

## ITALYAN XALQ MAQOLLARINING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMASI

**Behzod Xudoyqulov**

**Sayram Jurayeva**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7424191>

**Annotatsiya.** *Boshqa tillar kabi Italyan tilida ham xalq og'zaki ijodi namunalarini, xususan maqollarni o'rganish muhim tadqiqod mavzularidan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada italyan tilida ko'p qo'llaniladigan maqollar tahlil qilingan bo'lib, ularning tarjimalari va ekvivalentlari turli misollar orqali yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *italyan tili, maqollar, tarjima, shakl va ma'no, ko'chma ma'no, ekvivalent.*

## ПЕРЕВОД ИТАЛЬЯНСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

**Аннотация.** *Пословица считается одной из важнейших тем исследований в итальянской лингвистике. Целью данной статьи является анализ итальянских пословиц и их переводов на узбекский язык. Теоретические данные о пословицах обсуждаются и анализируются на разумных примерах.*

**Ключевые слова:** *итальянский язык, пословицы, перевод, смысл, переносное значение, эквивалент.*

## TRANSLATION OF ITALIAN PROVERBS INTO UZBEK LANGUAGE

**Abstract.** *Proverb is considered one of the most important research topics in Italian linguistics. The aim of this paper is the analysis of Italian proverbs and their translations into Uzbek language. Theoretical data about proverbs are discussed and analyzed with reasonable examples.*

**Keywords:** *italian, proverbs, translation, meaning, figurative meaning, equivalent.*

Til kishilar o'rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, fikrni boshqalarga yetkazuvchi quroldir. Til milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazina ham. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiati, u xalqning iqtisodiy tuzumi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, avloddan-avlodga yetkazib berish tilning milliy-madaniy belgisidir. Milliy-madaniy xususiyatlar tilning hamma qatlamlarida: leksikasida ham, grammatikasida ham, hatto fonetikasida ham mavjud. Biroq milliy-madaniy belgilar tilning harakatdagi birliklarida juda aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar, frazemalar va paremiyalardir. Xalq og'zaki ijodi - millatning tarixiy taraqqiyoti, urf-odat, an'analari, dunyoqarashi, ma'naviy va madaniy kamolot darajasini aks ettiradigan manba. Folklor janrlaridan eng ko'p va faol qo'llanadigan maqol va matallar bo'lib, ularda xalq o'tmishi, madaniyati, axloqiy-huquqiy me'yorlari o'z ifodasini topadi. Tilshunoslikda maqollar tuzilishi, tarkibi va ma'no butunligiga ko'ra barqaror birikmalarning bir turi sifatida qaraladi. [G.Komilova, 2012; 175 b].

Tilshunoslikda ko'plab olim va tadqiqodchilar maqollar haqida bir qancha ta'riflarni keltirib o'tgan. Jumladan, prof. G.Rahimov, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" nomli qo'llanmasida quyidagicha ta'rif beradi: Maqol ixcham shaklga, chuqur mazmunga ega bo'lgan xalq ozaki ijodi janrlaridan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. [G'. Rahimov, 2016; 116-122 b.]

Maqol xalqning pand-nasihati, ma'naviy-axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksadosi, til tabiatining hikmatli mezonidir. Maqol to'qilmaydi, balki ma'lum sharoit taqozosi bilan yaratiladi.

Italyan tili ham boshqa tillar kabi maqollarga boy til hisoblanadi. Shuning uchun ularni turli tomondan tadqiq etish lug'at boyligini oshirish hamda italyan tili bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Maqollar turli tillarda o'sha xalqning ba'zi urf-odatlarini ham aks ettiradi. Bu kabi xususiyatlarni ifodalovchi maqollar Italyan tilida ham tez-tez uchraydi. Masalan, Italyan tilidagi quyidagi maqollarning tarjimalariga e'tobor qaratamiz:.

- *Un amico si vede nel momento del bisogno* - Haqiqiy do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.
- *Meglio prevenire che curare* – Davolagandan ko'ra,oldini olgan afzal.
- *Non dire gatto se non ce l'hai nel sacco* – To'ydan oldin nog'ora chalma.
- *I guai non vengono mai soli* – Qars ikki qo'ldan chiqadi.
- *Lontano dagli occhi, lontano dal cuore* – Mehr ko'zda.
- *Bisogna battere il ferro finché è caldo* – Temirni qizig'ida bos.
- *L'apparenza inganna /L'abito non fa il Monaco* – Tashqi ko'rinishga qarab baho bermang.
- *Il mondo è fatto a scale, c'è chi scende e c'è chi sale* – Hayot baland – pastliklardan iborat.
- *Chi cerca trova* – Izlagan imkon topar.
- *Tutti i nodi vengono al pettine* , **Significato: prima o poi dovremo affrontare la verità e le sue conseguenze / i problemi / le difficoltà che abbiamo rimandato** - Haqiqatdan qochib qutulib bo'lmaydi.
- *La mela non cade mai lontano dall'albero/ Tale padre, tale figlio* – Olmaning tagiga olma tushadi.
- *Chi vivrà vedrà. Significato: aspetta e vedrai, il tempo te lo farà vedere* – Vaqt oliy hakam.
- *Finché c'è vita c'è speranza* – Hayot bor ekan,umid bor.
- *Il lavoro nobilita l'uomo, Significato: avere un lavoro ti dignifica come persona* - Mehnat insonni ulug'laydi.
- *Al cuore non si comanda* – Yurakka buyruq berib bo'lmaydi.
- *Si raccoglie quello che si semina* – Har kim ekkani o'rar.
- *Non rimandare a domani quel che puoi fare oggi* – Bugungi ishni ertaga qoldirma.
- *Tal abate, tali i monaci/Tale padre, tale figlio* – Olmani tagiga olma tushadi.
- *La barba non fa il filosofo* - Tashqi ko'rinishga qarab baho bermang.
- *Ognuno segue le sue abitudini/ Ognuno segue i comportamenti ai quali e` stato educato* - Qush uyasida ko'rganini qiladi.
- *Accade in un'ora quel che non avviene in cent'anni [mill'anni]/Quello che pare eterno scompare, crolla in un momento* - Ko'za kunda emas kunida sinadi.

Maqollar, ko'pincha, poetik shaklga ega bo'ladi. Ular o'zining ixcham, pishiq va puxta ishlanganligi bilan ham xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Maqollar o'zining ijtimoiy, g'oyaviy vazifalariga ko'ra, asosan, keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarining dunyoqarashlarini ifodalaydi. Shu bois maqollarning tematik ko'lami juda keng bo'lib, bu ko'lamni juz'iy hayotiy voqelik doirasi bilan chegaralab bo'lmaydi. Ijtimoiy borliqning hech bir sohasi yo'qki, maqollarda aks etmagan bo'lsa. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli, o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar davomidagi hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida ko'p marotaba sinovdan o'tadi. Binobarin, maqollar ham shaklan, ham mazmunan juda kam o'zgarishlarga uchrab, uzoq yashash xususiyatiga ega. Maqollar qator xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin ajralib turadi. Maqollar fikrni aniq, lo'nda va obrazli tarzda bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Ular har qanday shoir, yozuvchi yoki notiq uchun ulkan xazina bo'lib, ulardan ustalik bilan foydalanish yozuvchining asarini, notiqning nutqini purma'no va jozibali qiladi, aytmoqchi bo'lgan fikrini obrazli ifodalashga yordam beradi, uning badiiy jihatdan g'oyat ta'sirchan bo'lishiga olib keladi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'rishimiz mumkin. [G'. Rahimov, 2016; 116-122 b.]

Italyan tilidagi maqollarning yuqoridagi tahlili orqali ular orasida – o'zbek tiliga ekvivalent bo'la oladiganlarini ham ko'rishimiz mumkin. Bu kabi ekvivalent maqollar talabalarga – maqollarni qiyosiy jihatdan o'rgatishda muhim manbaa hisoblanadi.

Xorijiy tillardagi maqollarni o'rganish ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgani va yangi natijalarga erishilayotgani chet tilini o'rganuvchi talabalarga yanada qulaylik yaratmoqda. Chunki bu kabi izlanishlar natijasida xorijiy tildagi maqollar semantik, struktur-grammatik, lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinmoqda. Natijada xorijiy tildagi maqollarni tezroq tushunish va ularning ekvivalentlarini aniqlash muammolariga ham yechim topilmoqda.

## REFERENCES

1. Gianluca Aprile. (2008). Italiano per modo di dire//Alma Edizione .
2. G.Komilova. (2012; 175 b.), Antonim komponentli paremiyalarning lingvokulturologik tadqiqi. Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Ilmiy maqolalar to'plami VI kitob. – Toshkent: - 272 b
3. Lapucci C., (1990) Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 1st ed., Milano.
4. Salomov G', (1983) Tarjima nazariyasi asoslari, T., "O'qituvchi", 73-b.
5. Turrini G., Alberti C. (2002) Santullo M. L., Zanchi G., Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore, 6th ed., Bologna.
6. Vladimir Kovalev. (2014); il Kovalev, Dizionario Russo-Italiano Italiano-Russo. Quarta edizione. Collana: I grandi dizionari .
7. O'zbek xalq maqollari. Sharq nashriyoti. Toshkent.2013
8. G'.Rahimov. (2016) Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua /– Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, – 116-122 b.
9. Davlayev A. A., Xudoyqulov B. XORIJIY TILDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNI QIYOSIY O'RGANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 1108-1113.
10. Xudoyqulov B., Tursunov U. ITALYAN HIKOYALARIDA FRAZEOLOGIK IBORALARNING BERILISHI ("GIALLO A CORTINA" VA "LA STRANIERA" HIKOYALARI MISOLIDA) //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 1315-1318.